

## BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA TABIATNI ANGLASH

### KO'NIKMALARINI ELEKTRON RESURSLAR VOSITASIDA O'RGATISH

D.Elmuratova

GulDPI dotsenti, p.f.f.d (PhD).

S.Sh.Karimova

Guliston davlat universiteti o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14741579>

**Annotatsiya.** Bugungi kun o'qituvchidan ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanishni talab etmoqda. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarimizni atrofimizdagi olam, tabiat bilan tanishtirish jarayonida asosiy diqqat e'tibor ekologik muammolarga qaratiladi. Bunda insonning tabiatga ta'siri, o'simliklarning o'simlik bilan, o'simliklarning hayvonlar bilan, hayvonlarning hayvonlar bilan o'zaro aloqasi va bog'liqligi o'r ganiladi. Mazkur maqola tabiiy bilimlarni anglash ko'nikmalarini rivojlantirishda o'ziga xos shakl, metod va vositalardan foydalanish samarasiga bag'ishlanadi. Yuqoridaqilardan kelib chiqib, tajribalarimiz asosida dars mashg'ulotlarida interfaol metodlarni qo'llash orqali ta'lim-tarbiya berish yo'llariga doir fikrlarimizni bayon etamiz.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich ta'lim, o'quvchilar, ta'lim jarayoni, o'yin texnologiyalari, tabiiy-ilmiy savodxonlik, tabiatni anglash, tabiatni sevish, tabiatni anglash ko'nikmalarini rivojlantirish, shakl, metod va vositalar.

### TEACHING NATURE UNDERSTANDING SKILLS TO PRIMARY GRADE

#### STUDENTS USING ELECTRONIC RESOURCES

**Abstract.** Today, teachers are required to use advanced pedagogical and new information technologies in the educational process. In the process of introducing our younger school-age students to the world around us and nature, the main attention is paid to ecological problems. This includes studying the impact of humans on nature, the interaction and connection of plants with plants, plants with animals, and animals with animals. This article is devoted to the effectiveness of using specific forms, methods and tools in developing natural knowledge understanding skills. Based on the above, we express our thoughts on the ways of teaching and educating by using interactive methods in lessons based on our experience.

**Keywords:** primary education, students, educational process, game technologies, natural and scientific literacy, understanding of nature, love of nature, development of skills in understanding nature, form, methods and means.

### ОБУЧЕНИЕ НАВЫКАМ ПОНИМАНИЯ ПРИРОДЫ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ С ПОМОЩЬЮ ЭЛЕКТРОННЫХ РЕСУРСОВ

**Аннотация.** Сегодня от педагогов требуется использование в учебном процессе передовых педагогических и новых информационных технологий. В процессе ознакомления наших младших школьников с окружающим миром и природой основное внимание уделяется экологическим проблемам. Она изучает влияние человека на природу, взаимодействие и связи между растениями, растениями и животными, а также животными и животными. Данная статья посвящена эффективности использования конкретных форм, методов и средств в формировании навыков понимания естественных знаний. Исходя из вышеизложенного, на основе нашего опыта, мы рассмотрим пути обеспечения образования посредством использования интерактивных методов на уроках. Мы выражать свои мысли.

**Ключевые слова:** начальное образование, учащиеся, образовательный процесс, игровые технологии, естественнонаучная грамотность, понимание природы, любовь к природе, развитие навыков познания природы, формы, методы и средства.

---

O‘quvchilarning tabiiy sharoitlarda nazariy bilimlarni o‘rganishga yo‘naltirilgan harakatlari ayrim vaqtarda samarasiz ham bo‘lishi mumkin. Quyidagi holatlar ana shunday oqibatni keltirib chiqaradi: o‘quvchilarning bilish faoliyatini aniq maqsadga yo‘naltirilmasa; o‘quvchilarning e’tiboriga tabiatni o‘rganishdan ko‘zlangan aniq maqsad asosida o‘quv topshiriqlari havola etilmasa; boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tabiatni bilishga bo‘lgan hissiy yondoshuvlari ilg‘or didaktik metod va usullar yordamida rivojlantirilib borilmasa; fan o‘qituvchilari mavjud vaziyat hamda o‘quvchilarning shaxsiy imkoniyatlarini o‘zaro uyg‘unlashuviga erisha olmasa va boshqalar.

Tabiatni o‘rganishga bo‘lgan qiziqish quyidagi ikki muhim jihatning namoyon bo‘lishiga xizmat qiladi: boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida sezgi organlari faoliyatini rivojlantirish, turli ranglarni farqlay hamda bir-biridan ajrata olish, rang-barang ovozlarni tinglay va bir-biridan ajrata olish, hid va ta’mlarni sezalish, his-tuyg‘ularni shakllantirish, tengdoshlari hamda atrofdagilar bilan tashkil etiluvchi muloqot jarayonida ulardan o‘rinli foydalanish; tabiatni o‘rganish jarayonida ta’lim mazmunini to‘laqonli ochib berishga xizmat qiluvchi maqbul didaktik vositalarni tanlash imkonining yuzaga kelishi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tabiatni bilishga bo‘lgan qiziqishni shakllantirishda ularni kichik tadqiqotlar olib borishga rag‘batlantirish, ularda tabiatni anglashga oid bilimlarni mustaqil o‘zlashtirish ko‘nikmalarini hosil qilish ijobiy natijalarni qo‘lga kiritishni kafolatlaydi. O‘quvchilarning ta’lim jarayonidagi aqliy faoliyatining samaradorligi, faollik darajasi ularda qiziqishni shakllantiruvchi asosiy shart hisoblanadi.

Bu o'rinda o'quvchilarda bu holatni qaror toptirishga xizmat qiluvchi ta'lif shakl, metod va usullaridan o'rinli, maqsadga muvofiq, samarali foydalanish ham muhim ahamiyatga ega.

Bizning nazarimizda bu kabi yondoshuv o'z mohiyatiga ko'ra boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqliy qobiliyatlarini yuqori darajada baholashni anglatadi. O'quv materiallari mazmunini zarur darajadan ortiq murakkablashtirish o'quvchilarda hamma vaqt ham ijobiy his va tuyg'ularni rivojlantirishga yordam bermaydi, aksincha, ortiqcha jismoniy va ruhiy zo'riqishni keltirib chiqaruvchi materiallar mavjud qiziqish darajasining susayishiga sabab bo'ladi. Ta'lif jarayonida o'quvchilarning aqliy qobiliyatlariga tayanish, ularning hissiy-irodaviy sifatlarini inobatga olmaslik maqsadga erishishda bir yoqlama harakat qilishni ifodalaydi.

Tadqiqot ishlarida umumiy o'rta ta'lif maktablarining 1-2-sinflarida ta'lif olayotgan o'quvchilarda tabiatni bilish va anglashga bo'lgan qiziqishni shakllantirish muammosining echimini to'g'ri hal etish bu jarayon mohiyatini to'la anglashni talab etadi. Jarayon mohiyatini anglash uning asosini tashkil etuvchi tayanch tushunchalarni sharhlashni taqozo etadi.

O'rganilayotgan muammoning mohiyatini yoritishda "qiziqish" tushunchasi etakchi o'rin tutadi. Xo'sh, qiziqish nima?

Tabiatni bilish (o'rganish) hamda qiziqish o'rtasida qanday aloqadorlik, o'zaro bog'liqlik mavjud? Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiatni bilishga bo'lgan qiziqishni shakllantirishda asosiy e'tibor nimaga qaratilishi zarur? Bu savollarga ijobiy javob topish tadqiqot ishining to'g'ri olib borilishi va ijobiy yakunlanishini kafolatlaydi.

Boshlang'ich ta'lif tizimida o'quvchilarda predmet va hodisalarining ichki xususiyatlarini bilishga nisbatan intilish yuzaga keladi, jumladan, "Nega yomg'ir yog'adi?", "Buloqlar qanday hosil bo'ladi?". Bu kabi intilishning yuzaga kelishi va mustahkamlanishi o'quvchilarda tabiatni bilishga bo'lgan qiziqishning nisbiy barqarorligi va uning differentsiyalanishiga ko'ra tavsiflanadi.

Tabiat bilan bevosita, faol muloqotda bo'lish boshlang'ich sinf o'quvchilar tomonidan tashkil etilayotgan aqliy faoliyat jarayonini jadallashtiradi. Bu holat o'quvchilarning fikrlash tarziga ta'sir o'tkazib, ularda tabiatni bilishga bo'lgan qiziqishni hosil qiladi hamda aqliy qobiliyatlarini takomillashtiradi.

Tabiat jismlari va ob'ektlarini kuzatish maqsadida uyushtirilgan ekskursiyalarining samarali kechishida quyidagi holatlarning mavjudligi muhim ahamiyat kasb etdi: ekskursiyani tashkil etishdan ko'zlangan maqsadning aniqligi; kuzatilishi rejalashtirilayotgan jism yoki ob'ektning to'g'ri tanlanganligi; ekskursianing muayyan loyiha asosida tashkil etilganligi; o'quvchilarning diqqatini kuzatilayotgan jism yoki ob'ektga yo'naltirishga xizmat qiluvchi o'quv topshiriqlarining ishlab chiqilganligi; o'quv topshiriqlarining muammoli xususiyatga ega bo'lishini ta'minlash; kuzatish jarayonida o'quvchilarning erkin, mustaqil harakat qilishlari uchun

rag‘batlantirib borish; har bir o‘quvchining alohida faollik ko‘rsatishiga erishish; ularning faoliyatini izchil nazorat qilib borishga imkon beruvchi sharoitning mavjudligi va boshqalar.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini faol ravishda qishloq xo‘jaligi hamda ijtimoiy-foydale mehnatga jalb etish ham o‘zining ijobiy natijalarini beradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ta’lim berishda, darslik va ko‘rgazma materiallar bilan bir qatorda elektron resurslar bilan ishslash o‘quvchiga ancha qulaylik tug‘diradi, ya’ni ularda o‘quvchilar faoliyatini yo‘naltiruvchi, tizimga soluvchi ko‘rsatmalar va topshiriqlar mavjud, asosiyi bajargan harakatini to‘g‘ri yoki noto‘g‘riliqi haqida darhol ma’lumot oladi.

Esda saqlab qolish maqsadida o‘qituvchi turli ma’lumotlarni o‘zlashtirish haqida o‘quvchilarga tavsiyalar beradi, xotirani rivojlantirishni doimiy nazorat qilib turadi, uni takomillashtirishga yordam beradi. Elektron darslik yoki qo‘llanma bilan ishslash o‘quvchilarining o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi shu ma’noda tadqiqot doirasida o‘quvchilarini tabiatni anglash ko‘nikmalarini rivojlantirishda bevosita raqamli ta’lim vositalaridan foydalanishga e’tibor qaratildi. Maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda, 1-2-sinflar uchun elektron dasturiy platforma ishlab chiqildi. Undan foydalanish mexanizmi <https://tabiiy.yoshavlod.uz/rivojlanuvchi-mashqlar/> sayti kirish va uni bosqichma-bosqich faoliyatini bajarib borish nazarda tutiladi.

Tabiat bilan to‘g‘ri tashkil qilingan muloqot kichik yoshdagagi maktab o‘quvchilarida go‘zallikni his etishni boyitadi va chuqurlashtiradi, ularda o‘z harakati va ishini o‘zi baholay olish qobiliyati rivojlanadi, bu xislatlar xulq- atvorning odobiy hamda axloqiy normalarini anglash, atrofdagilarga nisbatan mas’uliyat hamda burchni tarbiyalash uchun zarurdir. Tabiat bilan muloqot jarayonida o‘rtoqlariga, kattalarga hurmat va mehr-munosabat vujudga keladi.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarini har tomonlama ma’naviy yetuk, axloqli, pok insonlar qilib voyaga yetkazishda tabiat bilan tanishtirish va uni anglashda “Tabiiy fanlar” fani muhim ahamiyat kasb etadi. Uning maqsadi, o‘quvchilarini tabiat bilan tanishtirish jarayonida tabiatga ehtiyojkorona munosabatda bo‘lish, Vatanga mehrli bo‘lish, ekologik ta’lim-tarbiyani amalga oshirish, tabiat haqida mukammal bilimga ega bo‘lgan yoshlarni tarbiyalashdan iboratdir.

“Tabiiy fanlar” o‘quv predmetining vazifasi o‘quvchilarini tabiat bilan tanishtirish usullari, ish shakllari, shuningdek, pedagog, psixolog olimlar va mutafakkirlarning tabiatning inson hayotidagi ahamiyati haqidagi bilimlari bilan tanishtirish va nazariy bilimlar berishga qaratiladi.

Aslini olganda “Tabiiy fanlar” fani ham pedagogikaning bir qismidir, chunki tabiat bilan tanishtirish orqali barcha tarbiya turlari amalga oshiriladi. Tabiat bilan bolalarning yosh xususiyatlari, fiziologik tuzilishlarini hisobga olgan holda tanishtiriladi. Shu bilan birga turli yosh guruhlarda ularning qiziqishlari, qobiliyatları, ehtiyojlari, xarakter xislatlari, iste’dodlari hisobga olinadi.

Bola a'zolarining tuzilishi - oliy nerv sistemasi, ichki a'zolari, tana tuzilishi, yoshga qarab hosil bo'ladigan o'zgarishlar tabiat bilan tanishtirishda muhim ahamiyatga ega. Bundan ko'rini turibdiki, bu kurs bolalar fiziologiyasi fani bilan ham bevosita bog'langan. Biologiya, geografiya, fizika, astronomiya fanlari "Tabiiy fanlar" asosini tashkil etadi. Chunki biz bolalarni jonli va jonsiz tabiat, tabiat hodisalari, yilning turli fasllari bilan tanishtiramiz.

Bu fanningmetodik mohiyati falsafa, biologiya, pedagogika, psixologiya, fiziologiya va barcha metodikalar bilan bog'liq holda bir-birini to'ldirib, mustahkamlaydi. Bolalarning jonsiz tabiat hodisalari, o'simliklar va hayvonlar, inson mehnati haqidagi tushuncha va tasavvurlarini kengaytirish haqida boyitish, shuningdek, o'simliklar o'stirish, hayvonlarni parvarish qilishda bolalarda oddiy ko'nikmalar hosil qilish ta'lim berishning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Bunda bolalarda kuzatuvchanlik, bilimga qiziqish, tafakkur va mantiqiy nutq rivojlanadi, so'z boyligi ortadi, yangi tushunchalar hosil bo'ladi.

Bolalarda mehnatni sevish, o'zgalar mehnatini qadrlash, o'simlik va hayvonlarni asrash, ularni parvarish qilish, o'z Vatanini, tabiatni sevish, tabiat go'zalliklarini ko'ra olish kabi xislatlarni o'stirish orqali tarbiyaviy vazifalar hal qilinadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarda 1-sinflarda "Tabiiy fanlar" darsligida mavzular quyidagi ketma-ketlikda berilgan:

Umumiy mavzular 9-bobni o'z ichiga oladi. Har bir bevosita integrativ faoliyat asosida shakllantirilgan. Yuqorida ta'kidlanganidek, dastlabki biologik tushunchalar darslikning 4-ta bobini qamrab oladi. 1-bobda, o'quvchilarga tabiatda tirik organizmlarning tarqalishi, jonsiz va jonli tabiat haqidagi tushunchalarni 3-ta (1-3 chi) mavzu asosida o'rganadi. Ulardan 2-mavzu amaliy mashg'ulot shaklida tashkil etiladi. 2-bob mazmunida o'simliklar dunyosi haqidagi ma'lumotlar 6 ta(3- nchi dan 7-mavzugacha) mavzuda aks etgan bo'lib, ulardan 5-mavzu amaliy mashg'ulot, 6-mavzu esa loyiha shaklida berilgan. 3-bob dunyosi, ular bilan bog'liq ilmiy tushunchalarni darslikdagi 8-11 mavzularni qamrab oladi.

Unda hayvonlarning yashash tarzi, xilma-xilligi va ularning ahamiyati haqida ma'lumot beriladi. 4-bobga kelib o'quvchilarga geografi bilan bog'liq ilmiy tushunchalar beriladi. Mazkur materiallar 4-bobdan 7-bob mavzulariga davom etadi. 4-bobda 12-14-mavzularda ob-havo, uning xilma-xilligi, harorat tushunchasi, tabiatdagi yog'in va uning turlari haqida tushunchalar o'z aksini topadi. Boshqa boblar singari bu bobda ham 12-mavzu amaliy mashg'ulot shaklida berilgan.

5-bob 15-19 mavzularni o'z ichiga oladi, unda yil fasllari, ularning ketma- ketligidagi xarakterli belgilar, o'zgarishlar va moslashuvlar haqida bilim beriladi. 19-mavzu bevosita o'quvchilar bilan mustaqil bajarish uchun amaliy mashg'ulot belgilangan, unda o'quvchilar yil fasllarining o'zgarishi bilan bog'liq bilimlar asosida ularni farqlashga va tasvirlashga o'rgatiladi.

6-bobda tabiatda kengatarqalgan o'simliklar dunyosining tarqalish va joylanish shakllari o'rganiladi. Unga ko'ra o'rmon, cho'llar va suv havzalari va ular bilan bog'liq ilmiy tushunchalar 20- 22 mavzularda keng yoritilgan.

7-bobda o'quvchilar uchun eng qiziqarli mavzulardan tashkil topadi. O'quvchilarga astromiya faniga xos bilimlar beruvchi 23-25 mavzularda yer va koinot haqidagi qiziqarli ma'lumotlar, oy, quyosh va kun-tunni hosil bo'lishi bilan ilmiy tushunchalar aks etgan etadi.

Bobdagi 23-mavzu amaliy mashg'ulot shaklida tashkil etiladi. 8 – va 9-bob bevosita fizik tushunchalarni o'zida aks ettirib unda issiqlik, yorug'lik , tovush va harakat haqidagi ilmiy ma'lumotlar mavzular va 3 ta amaliy mashg'ulotlar shaklida beriladi. 8-bobda 26-30 mavzularni qamrab oladi. 9- bobda 31-33 mavzudan iborat bo'lib, asosan harakat haqidagi tushunchalalar mohiyatiga bag'ishlanadi.

Ko'rib turganingizdek, 1-sinfda o'quvchilarning "Tabiiy fanlar" bo'yicha dastlabki ilmiy tushunchalarni egallash uchun bevosita yuqorida berilgan mavzular va amaliy mashg'ulotlarni samarali tashkil etish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Har bir mavzu o'quvchilarga tabiiy fanlar orasidagi integrativ aloqadorliknisamarali tashkil etish imkoniyati yaratilgan. O'quvchilar tabiiy bilimlarni egallash jarayonida biologik, geografik, atronomik va fizik tushunchalarni belgilangan mavzularni o'rganish va anglash asnosida olib boriladi.

Shuningdek, har bir bob mazmunidagi amaliy mashg'ulotlar avvalgi "Atrofimizdag'i olam" darsligidan farqli ravishda tubdan farq qiladi. Tabiiy fanlar mazmunida amaliy mashg'ulotlar soni ko'paytirilgan. Shu sababli o'quvchilar ko'proq amaliy ish bilan shug'ullanish imkoniyatiga ega buladilar. Ba'zi hollarda o'quvchilarni uyga berilgan vazifalarini oila a'zolari bilan birqalikda bajarishga bo'lgan imkoniyat ham ularni fanni mustaqil va mustahkam o'rganish imkonini yaratadi.

Umumiyl o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinf 2-sinf "Tabiiy fanlar" darsligining mavzulari quyidagi ketma-ketlikda berilgan: Umumiyl mavzular 12 bobni o'z ichiga oladi. Har bir bob 1-sinf Tabiiy fanlar darsligidagi bob mavzularini murakablashtirilgan holda takomillashtirilgan.

1 bobda, Tabiat deb nom olgan bo'lib, bobda 2 ta mavzu (1 va 3-mavzu) va 1 ta (2-mavzu) amaliy mashg'ulot mavjud. Bu bobda Tirik organizmlarning yashash muhiti, Jonli va jonsiz tabiat haqida ma'lumotlar berib o'tilgan. Bob so'ngida bob yuzasidan topshiriqlar berib o'tilgan.

2 bob 1-sinf Tabiiy fanlar darsligidagi O'simliklar dunyosi haqidagi ma'lumotlar anchagini takomillashtirilgan holda berilgan va 5 ta mavzudan (4-8 mavzular) iborat.

Bulardan 7-mavzu amaliy mashg'ulot bo'lib o'quvchilar urug'ning tuzilishini o'rganadilar, 8-mavzu esa loyiha ishi bo'lib, Urug'ning unib chiqish jarayonini o'rganadilar.

Bob so'ngida bob yuzasidan topshiriqlar berib o'tilgan.

3 bob Hayvonlar dunyosi bo‘lib, bu bob o‘zida 3 ta mavzuni (9-11 mavzular) o‘z ichiga oladi. 10-mavzu amaliy mashg‘ulot bo‘lib, Umurtqali va umurtqasiz hayvonlarni o‘rganamiz mavzusida. Bob so‘ngida bob yuzasidan topshiriqlar berib o‘tilgan.

4 bob Odam bo‘lib bu bobda odamning tana qismlar, sog‘lom turmush tarzi hamda to‘g‘ri ovqatlanish haqida ma’lumotlarga ega bo‘ladilar. Bob 3-ta mavzudan (12-14 mavzular) iborat, shundan 14-mavzu amaliy mashg‘ulot To‘g‘ri ovqatlanish haqida ma’lumotlar keltirilgan. Bob so‘ngida bob yuzasidan topshiriqlar berib o‘tilgan.

5 bobga kelib o‘quvchilarga geografiya bilan bog‘liq ilmiy tushunchalar beriladi.

Yashash joyi haqidagi bilimlarni o‘quvchilarga cho‘l, o‘rmon, tog‘lar, suvdagi hayoti mavzular orqali ma’lumotlar berilgan. 5-ta mavzudan iborat (15-19 mavzular) shunda 1 ta amaliy mashg‘ulotdan iborat. Bob so‘ngida bob yuzasidan topshiriqlar berib o‘tilgan.

6 bob Bizning sayyora nomi bilan atalgan bo‘lib, 4 ta mavzudan (20-23 mavzular) iborat va 21 va 23-mavzu amaliy mashg‘ulot shaklida keltirilgan. Bob so‘ngida bob yuzasidan topshiriqlar berib o‘tilgan.

7 bob 1-sinf tabiiy fanining 4 bobi singari Ob-havo haqida 24-25-mavzularda haroratni o‘lchash, yer yuzidagi sovuq va issiq joylar, 26-mavzu amaliy mashg‘ulot: eng issiq va eng sovuq joylar tabiatini hamda hayvonlarini farqlashni o‘rganadilar. Bob so‘ngida boshqa boblarga o‘xshab topshiriqlar berilgan.

8 bobda o‘quvchilarga tabiiy boyliklar haqida ma’lumotlarni 27, 28, 29, 30- mavzular orqali tushunchalar berib o‘tilgan. Bu mavzulardan 28-mavzu Tuproq unumdorligini oshirishni o‘rganish va 30-mavzu Tosh, qum va tuproqning xususiyatlarini o‘rganish mavzusida amaliy mashg‘ulotlar berib o‘tilgan. Bob so‘ngida bob yuzasidan topshiriqlar berib o‘tilgan.

9 bob 31-33-mavzular Quyosh sistemasi bo‘lib bu bobda o‘quvchilarga yulduzlar va sayyoralar, yer-sayyora haqida ma’lumotlar berish orqali o‘quvchilarda 1-sinf tabiiy fan darsligining 7-bobi bo‘yicha egallagan bilimlarini yanada takomillashtirishga asoslangan.

Bobdagi 33-mavzu amaliy mashg‘ulot shaklida tashkil etildadi. Bob so‘ngida bob yuzasidan topshiriqlar berib o‘tilgan.

10 bob 34-35-mavzular orqali o‘quvchilarga yil fasillari haqida ilmiy tushunchalar berib o‘tilgan. Bob so‘ngida bob yuzasidan topshiriqlar berib o‘tilgan.

11 bob o‘quvchilar uchun eng qiziqarli mavzulardan tashkil topgan. Bevosita 1- sinf darsligimizdagi kabi gizik tushunchalarni o‘zida aks ettirib Energiya. Issiqlik va yoruug‘lik.

Tovush haqidagi ma’lumotlarni 36-41-mavzugcha yoritib berilgan. Bu mavzulardan 38 va 40-mavzular amaliy mashg‘ulot sifatida keltirib o‘tilgan. Bu bobga ham yuqorida boblar kabi bob yuzasidan topshiriqlar berib o‘tilgan

12 bob ham 1-sinf darsligimizning 9-bobi singari harakatlar haqidagi tushunchalarning mohiyatiga bag‘ishlangan bo‘lib, 42-45-mavzularni o‘z ichiga oladi. 43-mashg‘ulot Harakat turlarini o‘rganish nomli amaliy mashg‘ulot sifatida berilgan huddi shu bobda 45 mavzu Magnit ta’sirini o‘rganish nomli amaliy mashg‘ulot sifatida berib o‘tilgan. Bob yuzasidan topshiriqlar bilan darsligimiz yakunlanadi.

13 Ko‘rib turganingizdek, 2-sinfda o‘quvchilarning “Tabiiy fanlar” bo‘yicha 1- sinf tabiiy darsligidagi ma'lumotlardan keyin rivojlantiruvchi ilmiy tushunchalarni egallash uchun bevosita yuqorida berilgan mavzular, amaliy mashg‘ulotlari va 1 ta loyiha ishini samarali tashkil etish o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Har bir mavzu o‘quvchilarga tabiiy fanlar orasidagi integrativ aloqadorliknisamarali tashkil etish imkoniyati yaratilgan. O‘quvchilar tabiiy bilimlarni egallash jarayonida biologik, geografik, astronomik va fizik tushunchalarni belgilangan mavzularni o‘rganish va anglash asnosida olib boriladi. Shuningdek, har bir bob mazmunidagi amaliy mashg‘ulotlar avvalgi “Atrofimizdagi olam” darsligidan farqli ravishda tubdan farq qiladi. Tabiiy fanlar mazmunida amaliy mashg‘ulotlar soni ko‘paytirilgan va 1 ta loyiha ishi qo‘shilgan. Shu sababli o‘quvchilar ko‘proq amaliy ish bilan shug‘ullanish imkoniyatiga ega buladilar. Ba’zi hollarda o‘quvchilarni uyga berilgan vazifalarini oila a’zolari bilan birqalikda bajarishga bo‘lgan imkoniyat ham ularni fanni mustaqil va mustahkam o‘rganish imkonini yaratadi.

Shunday qilib, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashning uzlusizligi “maktab – POTMSi – MOllari” ko‘rinishida amalga oshiriladi. Tabiatshunoslik o‘qituvchilari tayyorlashning konseptual asosini mahalliy talablar asosida kichik mакtab yoshidagi o‘quvchilar tayyorlash va zamonaviy o‘qituvchilarga qo‘yilgan meyorlar tashkil etadi.

O‘ylaymizki, u o‘quv mashg‘ulotlari samaradorligini oshirishda hamkasblarimizga amaliy yordam beradi. Shuningdek, o‘quvchilarni o‘z yo‘nalishini tanlash va mustaqil hayotga tayyorgarlik ko‘nikmalarini shakllantirishdek mas’uliyatli vazifani bajarishda ularning yaqin ko‘makchilardan biriga aylanadi.

## REFERENCES

1. Shahriddinovna, K. S. (2023). Didactic Features Of Development Of Nature Perception Skills Of Primary School Students. *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*, 19, 183-187.
2. Shahriddinovna, K. S. (2023). INTRODUCING CHILDREN OF PRIMARY SCHOOL AGE WITH THE WORLD. *American Journal of Applied Science and Technology*, 3(06), 09-14.

3. Shahriddinovna K. S. Didactic Features Of Development Of Nature Perception Skills Of Primary School Students //Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. – 2023. – T. 19. – C. 183-187.
4. Shahriddinovna K. S. INTRODUCING CHILDREN OF PRIMARY SCHOOL AGE WITH THE WORLD //American Journal of Applied Science and Technology. – 2023. – T. 3. – №. 06. – C. 09-14.
5. Karimova, S. (2022). THE ROLE AND IMPORTANCE OF" NATURAL SCIENCES" IN THE DEVELOPMENT OF UNDERSTANDING OF NATURE IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS. *Science and innovation*, 1(B6), 214-218.
6. Karimova S. THE ROLE AND IMPORTANCE OF" NATURAL SCIENCES" IN THE DEVELOPMENT OF UNDERSTANDING OF NATURE IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B6. – C. 214-218.
7. Karimova S. CHARACTERISTICS OF NATURAL TEACHING METHODOLOGY //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – T. 1. – №. 11. – C. 737-740.
8. Karimova S., Xojiyeva M. DEVELOPMENT OF INTELLECTUAL SKILLS OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS //International conference on multidisciplinary science. – 2024. – T. 2. – №. 11. – C. 47-52.
9. Qizi, Karimova Sevara Shaxriddin, and Xojiyeva Muslima Ravshanbek Qizi. "Development of Intellectual Skills of Primary School Students." (2024).
10. Karimova S., Umarova C. IMPROVING LOGICAL AND CRITICAL THINKING LITERACY OF PRIMARY CLASS STUDENTS //INTERNATIONAL CONFERENCE ON INTERDISCIPLINARY SCIENCE. – 2024. – T. 1. – №. 12. – C. 138-143.
11. Qizi, K. S. S. (2023, September). FORMATION OF NATURE AWARENESS SKILLS OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS. In *International Scientific and Current Research Conferences* (pp. 43-45).
12. Karimova S., Habibullayeva S. THE SIGNIFICANCE AND ITS APPLICATION OF EXHIBITION IN PRIMARY CLASS MATHEMATICS LESSONS //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 1335-1339.